

**“CONSTRAINT IN ARABIC: ITS FUNCTION AND POSITION IN SYNTAX” (BASED ON ABDURAHMON JAMI’S “FAVAIDUZ-ZIYAIYYA”)****Buzahro M. Begmatova***Associate Professor, PhD in Law
Tashkent, Uzbekistan***P. Mushtariy Vakkosova***Second-year Master's Student
Higher School of Arab Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
akchabayevamushtariy@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Jami, “Favaiduz Ziyaiyya”, syntax, constraint, nahv, nasb, grammatical functions, sentence structure, objects, modifiers, inflection, syntactic roles, linguistic analysis.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: This article provides a detailed analysis of the grammatical category of tamyiz (specification/limitation) using Abdurahman Jami’s work “Al-Fawā'id al-Ziyā'iyya” as a case study. The study examines the role of tamyiz in Arabic syntax, its morphological expression, its connection with sentence elements, and its semantic function. The article demonstrates how tamyiz appears in the mansub case, interacts with the subject and predicate, and clarifies quantities, weight, size, and other measurement units. This research provides a theoretical foundation for understanding the complex syntactic structures of Arabic, the mansub system, and tamyiz mechanisms, while highlighting the text’s importance for traditional methods of teaching Arabic in medieval madrasas.

**ARAB TILIDA CHEKLOV VA UNING SINTAKSISDAGI O‘RNI
(ABDURAHMON JOMIYNING “FAVOIDUZ-ZIYOIYYA” ASARI MISOLIDA)****Buzahro M. Begmatova***Dotsent, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent, O'zbekiston***P. Mushtariy Vakkosova***Magistratura II bosqich talabasi
Arabshunoslik oliy maktabi*

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
akchabayevamushtariy@gmail.com
 Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Jomiy, «Favoiduz-Ziyaiyya», sintaksis, cheklov, nahv, nasb, grammatik funksiyalar, gap tuzilishi, to'ldiruvchilar, aniqlovchilar, otlash, sintaktik rollar, lingvistik tahlil.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdurahmon Jomiyning "Favoiduz-Ziyoiyya" asari misolida arab tilida cheklov (tamyiz) grammatik kategoriyasi chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda cheklovning arab tilidagi sintaksisdagi o'rni, morfologik ifodalanishi, gap tarkibidagi elementlar bilan bog'liqligi va semantik vazifasi ko'rib chiqiladi. Maqolada cheklovning tushum kelishigida (al-mansub) joylashishi, gapning kesimi va egasi bilan munosabatlari, shuningdek, o'lchov, hajm, masofa va son kabi birliklarni aniqlashtirishdagi roli misollar bilan yoritilgan. Maqola arab tilining murakkab sintaktik tuzilishini, mansub tizimi va tamyizning nahviy mexanizmlarini tushunishda tadqiqotchilar uchun nazariy asos yaratadi hamda o'rta asr madrasalarida arab tili o'qitish an'alarini aks ettiruvchi ilmiy manba sifatida ahamiyatini ko'rsatadi.

ОГРАНИЧЕНИЕ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ И ЕГО РОЛЬ В СИНТАКСИСЕ НА ОСНОВЕ РАБОТЫ АБДУРАХМАНА ДЖАМИ «ФАВАИДУЗ-ЗИЯЙЙА»

Бузахро М. Бегматова

Доцент, доктор философии (PhD) по юридическим наукам
 Ташкент, Узбекистан

П. Муштарий Ваккосова

Магистрант 2-го курса
Высшая школа арабоведения
Ташкентский государственный университет востоковедения
akchabayevamushtariy@gmail.com
 Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Джамии, «Фаваидуз-Зияиййа», синтаксис, ограничение, нахв, насб, грамматические функции, структура предложения, дополнения, определения, склонение, синтаксические роли, лингвистический анализ.

Аннотация: В данной статье проводится глубокий анализ грамматической категории тамйиз (ограничение) на примере труда Абдурахмана Джамии «Фаваиду-Зияиййа». Исследование рассматривает роль ограничения в арабском синтаксисе, его морфологическое выражение, связь с элементами предложения и семантическую функцию. В статье показано, как тамйиз располагается в падеже насб (al-mansub),

взаимодействует с подлежащим и сказуемым, а также уточняет количество, вес, размер и другие измерительные единицы. Работа создаёт теоретическую основу для изучения сложной синтаксической структуры арабского языка, системы насб и механизмов тамиз, а также демонстрирует значение текста для традиционной методики преподавания арабского языка в средневековых медресе.

Kirish. Abdurahmon Jomiy nafaqat fors-tojik mumtoz adabiyotining yorqin namoyandasi, balki tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasidagi chuqur ilmiy merosi bilan ham mashhur olimdir. Uning she'riyat va adabiyotshunoslikdagi yutuqlari keng e'tirof etilgan bo'lsa-da, arab tili grammatikasiga qo'shgan hissasi alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, "Favoiduz-Ziyoiyya" asari Jomiy ilmiy faoliyatining eng muhim natijalaridan biri bo'lib, arab tilining murakkab grammatik qoidalarini tizimli va batafsil yoritadi. Ushbu asar Ibn Hojibning mashhur "Al-Kofiya" asariga yozilgan sharhlardan eng mukammali hisoblanadi va o'rta asr madrasalarida arab tili grammatikasini o'qitish jarayonida uzoq vaqt davomida asosiy darslik vazifasini bajargan. Jomiy "Favoiduz-Ziyoiyya"da arab tilining nahv ilmidagi asosiy tushunchalarini aniq va tizimli ravishda izohlab, ularni amaliy qo'llanishi bilan bog'lagan. Shu bois, bu asar nafaqat o'rta asrlardagi ilmiy an'analarni aks ettiruvchi manba sifatida, balki bugungi kunda ham arab tilshunosligi, sintaksis va grammatik tadqiqotlarida muhim ilmiy manba sifatida e'tirof etiladi. "Favoiduz-Ziyoiyya" orqali Jomiy arab tilining murakkab sintaktik tuzilishlarini o'rganishda tadqiqotchilar uchun mustahkam nazariy asos yaratgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu tadqiqot arab grammatikasi va nahv ilmining shakllanishi, rivojlanishi hamda uning madrasalarda o'qitilish tarzi bilan bog'liq yirik manbalarga tayangan. Tadqiqotda asosan Abdurahmon Jomiy (1414–1492)ning "Favoiduz-Ziyoiyya", Mahmud Zamaxshariy (1075–1144)ning "Al-Mufassal", Mustafo G'alayniy (XIX–XX asr)ning "Jomi'ud-durusil-arabiyya", shuningdek, Hifni Nosifning "Ad-Durusu n-Nahviya" asarlari asosiy nazariy va amaliy manbalar sifatida foydalanilgan. Tadqiqot materiallarining o'ziga xosligi va mavzuning murakkab tabiati inobatga olinib, ular tavsifiy, qiyosiy va komponentli tahlil usullari orqali o'rganilgan. Shu bilan birga, manbalardagi nahviy tushunchalar va grammatik qoidalar bir-biri bilan solishtirilgan, ularning madrasalarda o'qitilish an'analari va amaliy qo'llanilish usullari tahlil qilingan. Bu metodologiya tadqiqotga ilmiy asos yaratib, arab tilidagi cheklov va ularning sintaksisdagi o'rni mavzusini yanada chuqur o'rganishga imkon bergan.

Natijalar. Ma'lumki, grammatika morfologiya va sintaksisni o'z ichiga oladi. Morfologiya so'zlarning tuzilishi, yasalishi, turlanishi, tuslanishini o'rgansa, sintaksis so'zlarning va gaplarning o'zaro bog'lanish qonun-qoidalarini, ularning xillarini o'rganadi.

Hozirgi kunda dunyoda keng tarqalgan filologik (til va adabiyotga tegishli) ilmlarning asosida qadimgi yunon olimi Arastu tuzgan qadimgi yunon tili va adabiyotiga oid "Grammatika", "Ritorika", "Poetika" kabi asarlar yotadi. Arab tilshunos olimlari esa arab tiliga oid ilmlarni mutlaqo mustaqil tarzda, boshqa tillarga bog'lamagan holda yaratganlar. Masalan, rus filologiyasini tashkil qiluvchi grammatika, stilistika Arastu yaratgan tizimlar asosida XVIII, XIX, hatto XX asrlarda shakllana boshlagan bo'lsa, arab filologiyasini tashkil qiluvchi ilmlar VIII, IX asrlarda shakllangan va X asrdayoq kamoliga yetgan (Abdujabborov, 2007, p. 6).

Arab tili grammatikasida mavzularning yoritilishi, tizimga solinishi ham boshqa tillar grammatikasidan katta farq qiladi, ya'ni unda cheklov, maf'ul mutlaq (o'z-o'zini to'ldiruvchi), maf'ul ma'ahu (birgalik to'ldiruvchisi) va boshqa shu kabi faqat arab tiligagina xos bo'lgan grammatik kategoriyalarning mavjudligi hamda sintaksis va morfologiyani alohida ajratmasdan, yonma-yon bayon qilinishi bu tilning o'ziga xosligini ko'rsatadi. "So'z turkumlari", "Kelishik kategoriyasi", "Zamoning ifodalanishi" va boshqa ba'zi mavzularni banyon qilish jarayonida morfologiya bilan birga albatta sintaksis ham yoritiladi. Chunki, arab tili grammatikasida bu ikki bo'lim alohida yoritilmaydi (Grande, 1998, p. 3).

Yevropa va o'zbek arabshunoslari arab tilini o'rganayotgan talabalar uchun arab tili grammatikasini tushunarli qilish maqsadida uni o'z ona tillariga solishtirib yoritganlar va morfologiya hamda sintaksisni imkon qadar alohida bayon qilganlar.

Arab tilida gapning "ikkinchi darajali bo'laklari" degan tushuncha yo'q. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari jumladagi "qo'shilmalar" sifatida qaraladi va ular faqat gapni kengaytirishga xizmat qiladi (Girgas, 1873, p. 86). O'zbek tilida ikkinchi darajali bo'laklar "gap bo'laklari" mavzusida o'rganilsa, arab tilida ular turli grammatik mavzular doirasida yoritiladi. Masalan, aniqlovchi, "so'z birikmasi sintaksisi" mavzusida "al-murakkabat-murakkab birikmalar" nomi bilan ko'rib chiqilsa, to'ldiruvchi va hol arab grammatikasida asl manbalarda "al-mansubot, ya'ni tushum kelishigida turuvchi ismlar" mavzusida tushuntiriladi (Qosimova, 2014, p. 112). Bundan ko'rinib turibdiki, arab tilida to'ldiruvchi va hol kelishiklar mavzusida bayon qilinadi, shuningdek, boshqa tillarda uchramaydigan qo'shilmalar ham mavjud. Ana shunday bo'laklardan biri – tadqiq qilinadigan "Cheklov" mavzusidir.

O'zbek va rus tillarida otlar oltita kelishik bo'yicha turlansa, arab tilida ism so'zlari uchta kelishik – bosh (رفع), qaratqich (جر) va tushum (نصب) bo'yicha turlanadi. Tadqiq qilinayotgan "cheklov" grammatik kategoriyasi ham aynan tushum kelishigida turuvchi ismlarga kiradi.

Ma'lumki, chet tilini o'rganish uchun uni ona tili bilan qiyoslab o'zlashtirish samaraliroqdir. Shuning uchun ham arab tili grammatikasi o'zbek tilining grammatik qonun-qoidalariga qiyoslangan holda tushuntiriladi. O'zbek kitobxonlari uchun g'alizroq, tushunilishi qiyin ayrim terminlar esa tarjima qilinib, muomalaga kiritiladi. Ana shunday terminlardan biri – “cheklov”dir. Bu grammatik kategoriya arab tiligagina xos bo'lib, boshqa tillarda uchramaydi. O'zbek tilidagi ba'zi manbalarda bu termin “cheklov”, ba'zilarida esa “cheklash” deb beriladi.

Cheklash arab tilida kesimning xarakterini izohlash yoki aniq (konkret)lashtirish maqsadida qo'llaniladi. Cheklash vazifasini ot bajaradi va u kesimdan so'ng keladi. Bu vazifani bajaruvchi so'z gapda noaniq holatda, tushum kelishigida bo'ladi. Masalan:

Yigitcha aqli bilan ajralib turardi – إمتاز الشاب عقلا

Misoldan ham ko'rinib turibdiki, cheklash vazifasini bajarayotgan ot, kesim mazmuniga aniqlik kiritgan.

Endi arab nahvchilari bu kategoriyaga qanday ta'rif berganini bilish maqsadida asl arab manbalariga murojaat qilsak.

“Al-Unmuzaj fi n-nahv” asarida cheklash (cheklov) mavzusi shunday bayon qilingan:

“Cheklash – butun bir gapdagi mavhumlikni yo'qotadi (ya'ni gapning ma'nosini konkretlashtirish, cheklash uchun xizmat qiladi) va tushum kelishigida bo'ladi.” (Nosirova, 2004, p. 27).

Yana bir mashhur arab tilshunosi Hifni Nasifning “Ad-durusu n-nahviya” asarida esa cheklov (tamyiz) quyidagicha bayon etiladi:

يضاح – أسماء الكيل و الوزن و العدد و المساحة و نحوها كلها الفاظ مبهمه لانك اذا قلت: اشتريت قنطارًا وسكت لا يفهم السامع عين المراد من القنطار بحيث لا يعلم هل اشتريت قنطارًا سكرًا او صابونًا او غير ذلك. فاذا قلت اشتريت قنطارًا سكرًا فلفظ “O'lchov, og'irlik, son, masofa kabilarning barchasi noaniq so'zlardir. Agar sen: bir qintor sotib oldim, desang, eshituvchi nimadan bir qintor sotib olganingni tushunmaydi, ya'ni shakardanmi, sovundanmi yoki boshqa narsadanmi – noaniq bo'lib qoladi. Agar sen: shakardan bir qintor sotib oldim, desang, ‘shakar’ so'zi tamyiz, ya'ni cheklov bo'lib, u noaniqlikni bartaraf etadi va tushum kelishigida keladi.” (Hifni Nasif, 2007, p. 440)

Tamyiz arab tilshunosligida tushum kelishigida (mansub) keluvchi so'z bo'lib, ma'noni aniqroq qilish, mavhumlikni bartaraf etish vazifasini bajaradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tamyizning asosiy maqsadi isma yoki fe'ning ma'nosini konkretlashtirishdir. Masalan, agar biror narsaning turini yoki miqdorini ko'rsatish lozim bo'lsa, tamyiz shu so'z bilan amalga oshiriladi. Shu jihatdan u vositasiz to'ldiruvchi (المفعول به) va ma'noni aniqlovchi (التمييز) vazifasini bir vaqtning o'zida bajaradi.

Abdurahmon Jomiy “Favoiduz Ziyoiyya” asarida gapning ikkinchi darajali bo'laklarini “Tushum kelishigidagi ismlar” va “Qaratqich kelishigidagi ismlar” deb

nomlanuvchi mavzularda yoritib beradi, va المنصوبات – “Tushum kelishigidagi ismlar” ga shunday ta’rif beradi: “المنصوبات هو ما اشتمل على علم المفعولية”- “Tushum kelishigidagi ismlar, ya’ni maf’ullar, to’ldiruvchilarning belgilarini o’z ichiga oladi”. (Jami, (n.d.), p. 204).

Arab tilida mansub (tushum kelishigidagi) shakllar faqat grammatik bog’lanishni ko’rsatish vositasi emas, balki fikrni aniq va mukammal ifodalash mexanizmi hamdir. Ular orqali gap tarkibidagi so’zlarning o’zaro aloqasi aniqlanadi, harakat bilan bog’liq obyekt munosabati ravshanlashadi va nutqning mantiqiy izchilligi ta’minlanadi. Shu sababli nasb holati arab sintaktik tizimida markaziy o’rin egallaydi.

Tushum kelishigi yordamida gapdagi semantik yuklama aniq taqsimlanadi, harakatning yo’nalishi va ta’sir doirasi belgilab beriladi. Bu esa murakkab fikrlarni ixcham, lekin mazmunan boy tarzda ifodalash imkonini yaratadi. Arab tilining o’ziga xosligi ham aynan shunday grammatik vositalar orqali namoyon bo’ladi.

Nasb holatining mohiyatini chuqur anglash arab tilning ichki mexanizmlarini, e’rob tizimining mantiqiy asoslarini hamda sintaktik tuzilishning nozik jihatlarini tushunishga yordam beradi. Demak, mansub shakllar nafaqat grammatik kategoriya, balki arab tilining ifoda qudratini namoyon etuvchi muhim vosita sifatida baholanishi lozim.

Abdurahmon Jomiyning «Al-Favoidu-z-Ziyoiiyya» asarida tushum kelishigidagi ismlar ikkiga: asl va asliga o’xshash tushum kelishigidagi ismlarga bo’linadi. Va asliga o’xshash tushum kelishigidagi ismlarning ikkinchi turi bo’lgan «tamyiz» ya’ni cheklovga bunday ta’rif beradi:

“Tamyiz-bu jumladagi mavhumlikni yo’qotib unga aniqlik kiritadigan so’zdir” (Jami, (n.d.), p. 295).

Jomiyning asardagi izohiga ko’ra, tamyiz ibhom (noaniqlik) ni kamaytirib, shaxs yoki narsaning xususiyatini aniq belgilaydi hamda ko’pincha miqdor, o’lcham, sifat yoki holni ochib beradi. Shu bois tamyiz qo’llanilishi bilan gap mazmuni mukammallashadi va u qat’iy nahviy qoidalarga muvofiq ishlatiladi. Masalan:

“Men oqib turgan bir ko’z (manba/oyna)ni ko’rdim.” رأيت عيناً جاريةً

Bu jumlada جارية (oqib turgan) so’zi ibhomni kamaytiradi, chunki u ko’z (عين) haqida aniqroq ma’lumot beradi. Shuningdek, هذا الرجل (“bu odam”) kabi jumlada ham ibhomning kelib chiqishi kontekstga bog’liq bo’ladi. Jomiy ta’kidlaydi: “Ibhom so’zning ko’p qo’llanishi yoki mavhumligi sababli yuzaga keladi, lekin tamyiz yordamida u kamayadi.” (Jami, (n.d.), p. 295).

Bundan tashqari, Jomiy misol tariqasida أبو حفص عمر ni keltiradi: “Har bir ism (أبي حفص) va عمر aniq shaxsiga tegishli, ibhom yo’q, lekin mashhurroq ism (عمر) zikr qilinsa, kamroq mashhur bo’lgan (أبي حفص) yashirin qoladi.” Bu yerda ibhom kam mashhurlikdan kelib chiqadi, predmeti o’zgarmaydi. (Jami, (n.d.), p. 296).

Tamyizning o'Ichamlar bo'yicha ishlatilishi va ularning misollari sonlar bo'limida keltiriladi. Ba'zi hollarda son bo'lmagan narsalarda ham, masalan og'irlik (الوزن), tamyiz ishlatiladi. Misol: رَطْلٌ زَيْتًا – "yarim man (o'lchov birligi) yog'". Bu yerda "رَطْلٌ" (man) tamyiz bo'lib, yog'ning miqdorini aniqlaydi. Shuningdek, og'irlik, uzunlik va o'lchovlar uchun: قَفِيرَانٌ بُرًّا – ikki o'ram bug'doy, ذِرَاعٌ ثَوْبًا – bir qo'l uzunlikda mato, عَلَى الثَّمَرَةِ مِثْلَهَا زُبْدًا – bir tuxumga teng miqdorda yog' kabi misollarda cheklov o'Ichamlar yoki miqdorlarni anglatadi. (Jami, (n.d.), p. 298).

Arab tilshunoslari tamyiz-cheklovning ushbu ma'noda ishlatilishiga quyidagicha izoh beradilar:

يضاح – أسماء الكيل و الوزن و العدد و المساحة و نحوها كلها الفاظ مبهمه لانك اذا قلت: اشتريت قنطارًا وسكت لا يفهم السامع" عين المراد من القنطار بحيث لا يعلم هل اشتريت قنطارًا سكرًا او صابونًا او غير ذلك. فاذا قلت اشتريت قنطارًا سكرًا فلفظ "سكرًا" يسمي تمييزًا. O'lchov, kilogramm, og'irlik, son, masofa kabilarining barchasi noaniq so'zlardir. Agar sen bir qantor sotib oldim, desang, eshituvchi seni nimadan, ya'ni shakar-danmi, sovundanmi nimadan bir qantor olganingni tushunmaydi. Agar sen اشتريت قنطارًا سكرًا – shakar-dan bir qantor sotib oldim, desang, سكرًا – shakar so'zi tamyiz bo'lib, nasb holatda keladi." (Nasif et al., 2007, p. 440).

Jomiy esa bunga :

وَيُجْمَعُ أَي: يُورَدُ التَّمْيِزُ عَلَى مَا فَوْقَ الْوَاحِدِ جَوَازًا حَيْثُ لَمْ يُقْصَدِ الْوَاحِدُ (فِي غَيْرِهِ) أَي: غَيْرِ الْجِنْسِ، نَحْوُ: (عِنْدِي عِدْلٌ تَوْبِينٍ) Tamyiz birlikdan ko'p bo'lgan narsalarga ham qo'llaniladi, agar yagona birlik maqsad qilinmagan bo'lsa. Masalan: "Menda ikki libos yoki bir nechta liboslar bor" deb ta'rif bergan. (Jami, (n.d.), p. 300).

O'zbek arabshunoslari N. Ibrohimov va M. Yusupovlarning "Arab tili grammatikasi" nomli darsliklarida bu mavzuga shunday bayon berilgan: "Cheklov bo'lib kelgan so'z odatda gapning egasi va kesimidan keyin yoki gapning so'ngida noaniq holatda nasb holatda keladi. Bunda gapning kesimi ot kesim yoki fe'l kesim bo'lib kelishi mumkin. Cheklov gapning ega va kesimi bilan jinsda va sonda moslashmaydi." (Ibrohimov, Yusupov, 2009, p. 563).

Masalan: Mahmud go'zal yuzlidir – محمود حسن وجهًا (so'zma-so'z: Maxmud yuzi jihatdan yaxshidir) yoki محمود حسن خلقًا – محمود yaxshi xulqli-dir (so'zma-so'z: Maxmud xulq jihatdan yaxshidir). Cheklov gapning kesimi qiyosiy yoki orttirma darajadagi sifatdan iborat bo'lganida ham ishlatiladi. Masalan: U mendan yoshroq – هو أصغر مني سنًا (Grande, 1998, p. 341).

Jomiy matnida bayon qilinishicha: – فينصبه ذلك الاسم التام قبله؛ لمشابهته الفعل التام بفاعله "Tamyizni undan oldingi to'liq son (ism tām) nasb qiladi, chunki son fe'lga o'xshatiladi va undan keyin kelgan sanalmish grammatik jihatdan mansub bo'ladi." Shu sababli yuqoridagi misolda درهماً mansub kelishigida ishlatiladi. (Jami, (n.d.), p. 299).

Yana quyidagi ta'rif ham berilgan: لأن أسماء العدد إذا أريد بها المعاني الحقيقية لا تستدعي تمييزاً وإنما - تستدعي تمييزاً إذا أريد بها المعدود talab qilinmaydi; ammo son sanalmishni ifodalasa, tamyiz mansub kelishida bo'lishi shart, va bu nazariy asos son va sanalmish munosabatini, shuningdek tamyizning mansub kelishigini tushuntirishda muhimdir." (Jami, (n.d.), p. 305). Jomiy tamyiz masalasini juda chuqur va tizimli tarzda ifodalagan, u son va sanalmish munosabatini aniq ko'rsatib, tamyizning mansub kelishining nazariy asoslarini batafsil tushuntiradi: agar son o'zining haqiqiy matematik ma'nosida ishlatilsa, tamyiz talab qilinmaydi, ammo son sanalmishni ifodalasa, tamyiz mansub kelishida bo'lishi shart."

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, "cheklov" arab tiliga xos grammatik kategoriya bo'lib, u gapning kesimini aniqlashtirish uchun, og'irlik, hajm, masofani ifodalovchi o'lchov birliklaridan hamda sondan keyin ishlatiladi. Cheklov so'z aksariyat hollarda noaniq holatda, tushum kelishigida turadi.

Arab tili sintaksisida cheklov o'ziga xos va yetarlicha chuqur o'rganilmagan mavzulardan biridir. Rus va o'zbek tilidagi ayrim manbalarda bu masalaga qisqacha to'xtalib o'tilgan bo'lsa-da, uning sintaktik o'rni va semantik xususiyatlari batafsil tahlil qilinmagan. Shu bois mazkur tadqiqotda cheklovning arab sintaksisidagi o'rni arab tilshunoslari asarlari asosida o'rganildi.

Al-mansubat (tushum kelishigi) tizimi nafaqat fe'lga bog'liq to'ldiruvchilarni, balki gapning ma'nosini aniqlashtiruvchi, chegaralovchi va izohlovchi sintaktik birliklarni ham o'z ichiga oladi. Shu mansub birliklar orasida bizning maqolamizda alohida tadqiq etiladigan unsur (التمييز) hisoblanadi.

Arab tilida ikkinchi darajali bo'laklar alohida bob sifatida emas, turli grammatik mavzular tarkibida yoritiladi. To'ldiruvchi va hol "al-mansubat" doirasida bayon qilinadi. Cheklov ham shunday qo'shilmalardan biri bo'lib, kesimning ma'nosini aniqlashtirish va konkretlashtirish vazifasini bajaradi. U odatda nasb holatida, ega va kesimdan keyin keladi hamda ular bilan jins va sonda moslashmaydi.

Xulosa. Al-Favoiduz Ziyoiyya asarida Abdurahmon Jomiy tamyiz masalasini chuqur mantiqiy va grammatik asosda yoritgan. Muallif tamyizni ibhomni bartaraf etuvchi nahviy vosita sifatida talqin qilib, uning predmetga yoki unga aloqador ma'noga nisbatini aniq misollar orqali tushuntiradi. Asarda tamyizning birlik, ikkilik va ko'plik shakllari, jins ma'nosida qo'llanishi, sifat va hol bilan munosabati hamda miqdor va o'lchamni aniqlashdagi vazifasi izchil bayon qilingan. Jomiy har bir holatni dalillar bilan asoslab, grammatik nozikliklarni ochib beradi. Shu bois, mazkur asar nafaqat an'anaviy nahv sharhi, balki ilmiy asoslangan, tizimli va chuqur tahlilga tayangan muhim manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdujabborov, A. (2007). Arabic Language. – Tashkent: Tashkent Islamic University. – 6 p. (in Uzbek).
2. Ibrohimov, N., & Yusupov, M. (2009). Arabic Grammar. Vol. II. – Namangan: Ibrat. – 563 p. (in Uzbek).
3. Grande, B. M. (1998). Course on Arabic grammar in a comparative-historical perspective. Kurs arabskoj grammatiki v sravnitel'no-istoricheskom osveshchenii. – Moscow: Eastern Literature. – 3 p. (in Russian).
4. Girgas, V. (1873). Outline of the grammatical system of the Arabs. Ocherk grammaticheskoy sistemy arabov. – Saint Petersburg: Printing House of the Imperial Academy of Sciences. – 86 p. (in Russian).
5. Qosimova, S. (2014). Hamiduddin Daririy's "Muqaddima": Text and Study. – Tashkent: Tashkent State Institute of Oriental Studies. – 112 p. (in Uzbek).
6. Nosirova, M. (2004). Samples from Medieval Arabic Grammar. – Tashkent: Tashkent State Institute of Oriental Studies. – 27 p. (in Uzbek)
7. Nasif, H., Diyab, M., Tumum, M., & Salih, M. (2007). Ad-Durus an-Nahwiyya. – Alexandria, Egypt: Dar al-Aqida. – 440 p. (in Arabic).
8. Jami, A. (n.d.). Al-Fawa'id az-Ziyaiyya (Sharh al-Kafiya). Manuscript No. 9665. Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Institute of Oriental Studies. (in Arabic)
9. Grande, B. M. (1998). Course on Arabic grammar in a comparative-historical perspective. Kurs arabskoj grammatiki v sravnitel'no-istoricheskom osveshchenii. – Moscow: Eastern Literature. – 341 p. (in Russian).